

**O'ZBEKISTONNING YUNESKO DOIRASIDAGI ILK LOYIHALARI VA  
DASTLABKI HAMKORLIK YO'NALISHLARI**

**Safarov Maqsud Kenja o'g'li**  
Qarshi davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining YUNESKO bilan hamkorligi, bu jarayonning tarixiy bosqichlari hamda dastlabki loyihalarining mazmuni yoritilgan. Unda O'zbekistonning mustaqillikdan keyingi davrda xalqaro maydondagi faolligi, YUNESKO dasturlari orqali madaniyat, ta'lim va fan sohalarida amalga oshirilgan ishlari tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakatning tarixiy merosni saqlash, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish va milliy qadriyatlarni targ'ib etish borasidagi tashabbuslari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston, YUNESKO, xalqaro hamkorlik, madaniy meros, ta'lim, ilm-fan, tarixiy yodgorliklar, milliy komissiya.

**Аннотация.** В статье рассматривается сотрудничество Республики Узбекистан с ЮНЕСКО, его исторические этапы и первые проекты. Особое внимание уделено активизации международных связей Узбекистана после обретения независимости, реализации программ ЮНЕСКО в сферах культуры, образования и науки. Освещены инициативы страны по сохранению исторического наследия, развитию научного сотрудничества и популяризации национальных ценностей.

**Ключевые слова:** Узбекистан, ЮНЕСКО, международное сотрудничество, культурное наследие, образование, наука, исторические памятники, национальная комиссия.

**Abstract.** This article explores the cooperation between the Republic of Uzbekistan and UNESCO, focusing on its historical stages and initial projects. It highlights Uzbekistan's active engagement in international relations after gaining independence and the implementation of UNESCO programs in the fields of culture, education, and science. The paper also discusses the country's initiatives aimed at preserving historical heritage, expanding international scientific cooperation, and promoting national values.

**Keywords:** Uzbekistan, UNESCO, international cooperation, cultural heritage, education, science, historical monuments, national commission.

O'zbekistonning YUNESKO doirasidagi ilk loyihalari va dastlabki hamkorlik yo'nalishlari mamlakatning xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etish istagini hamda madaniyat, ta'lim va ilm-fan sohalaridagi yuksak maqsadlarini amalga oshirishga bo'lgan intilishini aks ettiradi. YUNESKO bilan hamkorlikning dastlabki bosqichlarida, asosan, madaniy merosni asrash, ta'lim tizimini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalarni

[www.innovativepublication.uz](http://www.innovativepublication.uz)



ilgari surish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratilgan edi. Ushbu dasturlar orqali O'zbekiston dunyo miqyosida o'zining madaniy va ilmiy yutuqlarini namoyish etib, xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga erishdi.

O'zbekistonning YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993-yil 29-oktyabrda YUNESKOning Parijdagi qarorgohida O'zbekiston ushbu tashkilotga a'zo etib qabul qilindi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994-yil oktyabr oyida Parijda Ulug'bek haftaligi tantanali tarzda o'tkazildi. Xiva va Buxoro shaharlari YUNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 1994-yil dekabr oyida “YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi” tashkil etildi. U idoralararo muvofiqlashtiruvchi organ sifatida faoliyat yuritadi va tarkibiga ta'lim, fan, madaniyat hamda axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 nafar a'zo kiritilgan. YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga alohida ahamiyat beradi. “Ipak yo'li — muloqot yo'li” nomli yirik xalqaro tadqiqot loyihasida Markaziy Osiyo mintaqasiga ustuvor o'rin ajratilgan. 1995-yil iyul oyida YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayor tashabbusi bilan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi.

1996-yilda Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. Shu munosabat bilan Parijda va Shahrisabzda xalqaro anjumanlar o'tkazildi hamda Shahrisabz shahri YUNESKOning madaniy meros ro'yxatiga kiritildi. 1997-yilda jahon madaniyatining durdonalari sanalgan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik yubileylari Parijda keng nishonlandi. Bu tadbirlar O'zbekiston bilan YUNESKO o'rtasidagi hamkorlikning yorqin ifodasi bo'ldi.

O'zbekiston BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasalar — Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, YUNISEF, Xalqaro pochta ittifoqi, Jahon meteorologiya tashkiloti va boshqa tashkilotlar bilan ham faol hamkorlik qilmoqda. YUNESKOning asosiy maqsadi insoniyatning aql-zakovati va axloqiy birligiga asoslangan barqaror tinchlikni ta'minlashdan iborat. Tashkilot dunyo madaniyatini rivojlantirish, barqaror taraqqiyot uchun xalqaro ilmiy dasturlar tuzish, milliy madaniyatlarni asrash va targ'ib etishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston YUNESKO doirasidagi xalqaro hujjatlarga qo'shilish orqali o'zining boy madaniy merosini xalqaro huquqiy himoya ostiga olgan, ilmiy va ma'naviy salohiyatini keng namoyon etgan. Bu hamkorlik milliy qonunchilikni takomillashtirishga, ta'lim, fan, madaniyat, informatika va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojiga xizmat qilmoqda. YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi 1994-yil 29-dekabrda Vazirlar Mahkamasining №629-son qarori asosida tashkil etilgan. Komissiya YUNESKO dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni muvofiqlashtiradi hamda milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Komissiya ta'lim, fan, madaniyat va kommunikatsiya yo'nalishlarida “Ta'lim barchaga”,



“Inson va biosfera”, “MOST”, “Jahon xotirasi” kabi xalqaro dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, xalqaro hamjamiyat bilan faol integratsiyalashuv yo‘lini tanladi. YUNESKO doirasidagi dastlabki loyihalar esa nafaqat mamlakatning madaniy merosini asrashga, balki xalqaro ilmiy va ta’limiy hamkorlikni rivojlantirishga ham xizmat qildi.

#### **ADABIYOTLAR:**

1. Международное право в документах: Учеб. пособие / Сост. Н.Т. Влапова, Г.М. Мелков. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Инфра, 1997. — С. 103.
2. Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burxonova. *O‘zbekiston tarixi* (Darslik). — T.: Iqtisodmoliya, 2006. — 460 b.
3. Ibrohimova O. *4-noyabr — YUNESKO tashkil topgan kun.* // Yangi O‘zbekiston, 2021-yil 4-noyabr.
4. *Birlashgan Millatlar Tashkiloti.* — Toshkent, 2011. — 176–177-bet.
5. *O‘zbekistonning yangi tarixi.* Uchinchi kitob. *Mustaqil O‘zbekiston tarixi.* — T.: Sharq, 2000.